



**AUTIZIMGA EGA SHAXSLARNING O'ZIGA XOS TUZILISHI VA
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Meliqo'ziyev Abdurahmon Qahramonjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Boymirzayeva Nazira Maxammatvali qizi

Annotasiya: Ushbu maqola Autizm spektri buzilishi (ASB) holatiga nisbatan jamiyat ongidagi yondashuvni qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ASB (Autizm Spektri Buzilishi), Neyro-rivojlangan, inklyuziya, takrorlovchi harakatlar (Stimming).

ASB (Autizm Spektri Buzilishi) nima? Bu “kasallik” emas, balki miyaning boshqacha tarzda simlangan (neyro-rivojlangan) holati ekanligini ta'kidlash. Nima uchun bu mavzu muhim va dolzarb? Avvalo, autizm millionlab insonlarning kundalik hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa uni global ijtimoiy masala darajasiga olib chiqadi. Ikkinchidan, ASBga ega shaxslarni jamiyatga to'liq inklyuziya qilish – ularning teng ta'lim olishi, ishga joylashishi va ijtimoiy hayotda ishtirok etishini ta'minlash nafaqat insoniy burch, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham zarurdir. Ularning tafsilotlarga e'tibor berish, mantiqiy tizimli fikrlash va yuqori darajadagi halollik kabi noyob qobiliyatlari iqtisodiyotning ko'plab sohalari, ayniqsa, texnologiya va ilm-fan uchun qimmatli kadrlar manbaidir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – noto'g'ri tushunchalar va stigmalarga barham berish, autizmga ega shaxslarning noyob kuchli tomonlarini yoritish hamda ularni jamiyatning ajralmas, qadrliligi sifatida qabul qilishga chorlashdir.

ASBga ega barcha shaxslarda kuzatiladigan ko'p holatlar bor. Masalan, muloqot uslubi, doimiy ravishda takrorlanuvchi xatti-harakatlar va ularning maxsus qiziqishlari, keling ular bilan birma-bir tanishib o'tsak. Ularning muloqot uslubi quyidagi jihatlarida farqlanadi:

1. Norasmiy (yashirin) muloqotni tushunmaslik: Kinoya, yuz ifodalari, tana tili kabi so'z bilan ifodalanmagan ijtimoiy signallarni tushunishda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi.
2. Ko'z bilan kontaktda bo'lishdagi qiynalish: Ko'z bilan uzoq muddatli kontakt o'rnatishda noqulaylik sezish yoki undan butunlay qochish holatlari tez-tez uchraydi. Bu beparvolik emas, balki sensor yuklanishni (hadan tashqari ko'p ma'lumotni) keltirib chiqarishi bilan bog'liq bo'lib, bu ularga suhbatga diqqatni jamlashga xalaqit beradi.



3. Emotsiyalarni qayta ishlash: O'z hissiyotlarini ifodalashda yoki boshqalarning hissiyotlariga tez va mos ravishda javob qaytarishda o'ziga xosliklar mavjud.

ASBga ega shaxslar ma'lum turdagi xatti-harakatlarga moyildir. Bu xususiyatlar ularda ko'pincha o'zida tashqi dunyodagi tartibsizlikka nisbatan xavfsizlik va nazoratni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan;

- Takrorlovchi harakatlar (Stimming): Qo'llarni silkitish, barmoqlarni qisish, tanani tebratish kabi ritmik yoki takrorlanuvchi harakatlar kuzatilishi mumkin. Bu harakatlar ko'pincha stressni kamaytirish, tinchlanish yoki sensor stimulyatsiyani boshqarish vositasi sifatida ishlatiladi.
- Bir xil tartibni yoqtirish: O'zgarishlarga nisbatan kuchli qarshilik va qat'iy tartib talabi. Kichik o'zgarishlar ham kuchli tashvish yoki stressga sabab bo'lishi mumkin. Bir xil tartib dunyoni oldindan aytish mumkin bo'lgan, xavfsiz joyga aylantiradi.

(Masalan, bir ASBga ega shaxsni o'z xonasida bir stol qiyshiq turishi ASBga ega shaxs uchun xavfsiz va normal holat bo'lsa, o'sha xonani tozalab va o'sha stolni to'g'irlab qo'ysak ASBga ega shaxs uchun juda katta stress va u o'zida xavf hissini beradi.)

ASBga ega shaxslarning eng ajralib turadigan ijobiy xususiyatlaridan biri bu ma'lum bir mavzuga nisbatan o'ta kuchli, ba'zan "maxsus qiziqish" deb ataladigan iqtidor hisoblanadi.

1. Ular o'zlarining qiziqish sohalarida (masalan, matematika formulalari, mexanika detallari, rasmlar tarixi, astronomiya yoki biror o'yinchoq brendi) aql bovar qilmaydigan darajada chuqur bilimga ega bo'lishlari mumkin.
2. Bu qiziqishlar ularning o'quv va kasbiy salohiyatini ochishda kalit bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri yo'naltirilgan bu fokus yuqori darajadagi malaka va kasbiy muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Bularga asosiy sabab ularda bitta xatti-harakatlarni doimiy ravishda takrorlanishi.

Autizm Spektri Buzilishi (ASB) holatining kelib chiqishi hali to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, zamonaviy neyrobiologiya va genetika sohasidagi tadqiqotlar ASBni keltirib chiqaruvchi omillar ko'p faktorli ekanligini ko'rsatmoqda. ASBni kelib chiqishiga ko'pincha genetik omillarni ta'siri yuqori bo'ladimi ?

Ha, albatta agar biror gen autizm kasalligi bilan kasallansa keyingi avlodda bu kasallikni kelib chiqishi yuqori ko'rsatkichda bo'ladi. Shunday qilib, bizda ularga qanday yordam berish kerak degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga javoban shunday deya olamiz. ASBga ega shaxslarning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish ularning o'ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan



tizimli va inklyuziv yondashuvni yaratib berish Qo'llab-quvvatlashning asosi individualizatsiya, doimiy terapiya va jamiyatning qabul qiluvchi muhitni yaratishdan iborat. Bunda asosiy pedagoglar va ota-onani roli katta bo'ladi. Bu orqali ular ijtimoiylashuvi boshlanadi. Ijtimoiy o'zaro aloqalardagi o'ziga xosliklar ASBga ega shaxslar uchun eng katta to'siqlardan biri bo'lgani sababli, ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish ularni jamiyatga moslashtirishning asosiy bosqichidir. Bu bosqichni yaxshi o'zlashtirish uchun ularga to'g'ridan- to'g'ri o'qitish, maktablarda ijtimoiy rol berish orqali moslashtirish mumkindir.

Xulosa qilib aytishimiz kerakki, Autizm — kasallik emas, o'ziga xos rivojlanish holatidir. Autizmga ega shaxslar jamiyatning to'liq a'zosi hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim va jamiyat orqali har bir insonning qobiliyatlari yuzaga chiqarish mumkindir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. National Institute of Mental Health (NIMH). Autism Spectrum Disorder. (Turli xil sahifalar, genetik, neyrobiologik va xulq-atvor sabablari bo'yicha joriy ma'lumotlar).
2. American Psychiatric Association (APA). (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5) (5th ed.). Arlington, VA: American Psychiatric Publishing.
3. Landa R. Early Communication Development and Intervention for Children with Autism Spectrum Disorders. Pediatrics, 2007.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha amaliy tavsiyalar. Toshkent, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Bolalar rivojlanishida autizm spektr buzilishlari bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent, 2020.